АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI

Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti iqtisodiyot fakulteti tadqiqotchisi

zulayhoxolmirzayeva92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona iqtisodiy rayonida tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy jihatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi Farg'ona iqtisodiy rayonida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish darajasi, aholiga xizmat ko'rsatishning hududiy joylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashdir. Shuningdek, tibbiyot muassasalarining malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi, gender tenglik tamoyillarining ta'minlanishi va soha salohiyatining oshirilishi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Sog'liqni saqlash vazirligi xisobotlaridan foydalanildi. Metodologik jihatdan statistika, kartografik tahlil, taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosini tizimli yondashuv tashkil qiladi. Tadqiqot natijalaridan viloyat, tuman va mahalliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, tibbiy xizmat ko'rsatish shaxobchalarini hududiy joylashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Tavsiyalar nafaqat Farg'ona iqtisodiy rayoni uchun balki, respublikaning boshqa mintaqalarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Infratuzilma, qamrov, yetib borish, kadrlar, gender tenglik, salohiyat, tibbiyot.

Abstract. This article analyzes the territorial aspects of the provision of medical services in the Fergana Economic Region. The main objective of the study is to determine the level of development of the healthcare system in the Fergana Economic Region and to identify the factors influencing the territorial distribution of healthcare services for the population. Attention is also paid to issues related to the provision of medical institutions with qualified personnel, the implementation of gender equality principles, and the enhancement of the sector's potential. The study is based on the statistical data of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics and reports of the Ministry of Health. Methodologically, statistical, cartographic, and comparative methods were applied. The research is grounded on a systematic approach. The findings of the study can be used in the implementation of socio-economic policy at the regional, district, and local levels, as well as in the development of programs for the territorial placement of healthcare facilities. The recommendations provided will contribute not only to the Fergana Economic Region, but also to improving the quality of medical services for the population in other regions of the country.

Key words: Infrastructure, coverage, accessibility, personnel, gender equality, potential, medicine.

Аннотация. В данной статье проанализированы территориальные аспекты оказания медицинских услуг в Ферганском экономическом районе. Основной целью исследования является определение уровня развития системы здравоохранения в Ферганском экономическом районе и факторов, влияющих на территориальное размещение обслуживания населения. Также уделено внимание вопросам обеспеченности медицинских учреждений квалифицированными кадрами, соблюдению принципов гендерного равенства и повышению потенциала отрасли. В исследовании использованы данные Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике и отчёты Министерства здравоохранения. В методологическом плане применены статистический, картографический и сравнительный методы. Основу исследования составляет системный подход. Результаты исследования могут быть использованы при реализации социально-экономической политики на областном, районном и местном уровнях, а также при разработке программ по территориальному размещению учреждений медицинского обслуживания. Представленные рекомендации будут полезны не только для Ферганского экономического района, но и для повышения качества медицинского обслуживания населения в других регионах республики.

Ключевые слова: Инфраструктура, охват, доступность, кадры, гендерное равенство, потенциал, медицина.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida islohotlar o'tkazish bugungi kunda ham o'z amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilingan, unda sohani modernizatsiya qilish, tibbiy xizmat ko'rsatishning barcha bosqichlarini zamonaviy standartlarga mos takomillashtirish asosiy vazifa etib belgilangan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-dekabrda 559-son qarori).[1]

"O'zbekiston-2030" strategiyasida aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan tibbiyot tizimini tashkil qilish asosiy vazifa qilib belgilangan. Unda aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, o'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish ko'zda tutilgan. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda PF-189-son Farmoni — "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida).[2]

Bugungi kunda tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy jihatlarini o'rganish muhim yo'nalishga aylangan bo'lib sog'liqni saqlash xizmatlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, aholining tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari, xizmat sifatining geografik farqlarini tahlil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Aholi soni, zichligi, yalpi ichki mahsulot hajmi, davlat sog'liqni saqlash uchun ajratgan mablag'lari, tibbiyot oliygohlari soni va ularning hududiy tarqalishi ham tibbiy xizmat ko'rsatish darajasiga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi.

Mintaqa tibbiy muassasalarining hududiy joylashuvi va aholi ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblikni aniqlovchi mintaqaviy tahlil, tibbiy infratuzilma va kadrlar taqsimotiga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar majmuali o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan, Farg'ona iqtisodiy rayonida tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy xususiyatlarini o'rganish iqtisodiy, ijtimoiy va demografik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy joylashuvini o'rganishda xalqaro tajribalarni tahlil qilish muhim. Ayniqsa Xitoy va Yevropa mamlakatlari tajribasi tibbiy xizmatlarning hududiy tashkil etilishi aholi zichligi, iqtisodiy o'sish va transport imkoniyatlariga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Yuan, X., Liu, H., Zhang, Y., & Chen, L. (2023) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, tibbiy resurslar joylashuvi demografik omillar, iqtisodiy rivojlanish darajasi va sog'liqni saqlash xarajatlariga bevosita bog'liqdir.[3] Bu nuqtayi nazar tibbiy infratuzilmani rejalashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlarning o'zaro ta'sirini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Roy Penchansky va William Thomas tadqiqotlarida tibbiy xizmatdan foydalanishdagi to'siqlarni beshta o'lcham orqali tizimlashtirgan:

- Mavjudlik-tibbiy xizmat ko'rsatish punktlari soni va ularning aholi ehtiyojlariga mosligi;
- Yetib borish imkoniyati-bemor yashaydigan joy bilan tibbiy muassasa o'rtasidagi masofa yoki vaqt ko'rsatkichi;
- Moliyaviy imkoniyat-xizmat narxi va aholi daromadi o'rtasidagi mutanosiblik;
- Qabul qilina olish-madaniy, ijtimoiy, va psixologik omillar ta'siri;
- Mos joylashuv-xizmat ko'rsatish vaqti va sharoitlarining aholi ehtiyojlariga muvofiq bo'lishidir. [9]

Shu bilan birga, Guagliardo (2004) o'z tadqiqotida tibbiy xizmatlarning hududiy joylashuvi aholi uchun xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali sog'liqni saqlash tizimi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.[7]

Xalqaro tadqiqotchilarning mazkur xulosalari Farg'ona iqtisodiy rayoni misolida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, bu hududda tibbiy xizmatlarni joylashtirishda geografik, iqtisodiy va demografik omillarning o'zaro bog'liqligi xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini belgilab beradi.

Mazkur masala mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, N.I.Safarova tibbiy xizmatlarning hududiy farqlari tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liqligini,[8] Ahmedova R. M. (2023) qishloq hududlarida tibbiy muassasalarni joylashtirishda aholi soni va transport aloqalarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini qayd etadi.[5]

Bu ilmiy fikrlar Farg'ona iqtisodiy rayonining tog'li va tuman markazlarida tibbiy xizmat infratuzilmasi o'rtasidagi nomutanosibliklarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining (2023) hisobotlarida tibbiy xizmat ko'rsatishda hududiy tenglikka erishish mamlakat sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tizimli yondashuv usulida tibbiy xizmat, demografik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'zaro aloqadorligi o'rganildi. Statistik tahlil usulida 2015-2024-yillar bo'yicha aholi soni, tibbiyot muassasalari soni kabi ma'lumotlar tahlil qilindi. Taqqoslash metodi orqali esa aholining tibbiy xizmatdan foydalanishdagi qulayligi, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi viloyatlar va tumanlar kesimida o'rganildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Farg'ona iqtisodiy rayonida tibbiy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini shakllantirishga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarini hudud bo'yicha optimal joylashtirish masalalari bo'yicha bir qancha olimlar ham tadqiqot olib borgan bo'lib, ular tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni guruhlaganlar.


1. Demografik omillar. Aholi soni, yosh tarkibi; jinsiy tarkib; migratsiya jarayonlari. [15], [3].
2. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Urbanizatsiya darajasi, daromad va bandlik darajasi, transport imkoniyatlari, industrializatsiya darajasi.[13], [4], [15]
3. Tabiiy-geografik omillar. Iqlim sharoiti, relyef va aholi joylashuvi, ekologik holat. [9] .[14]
4. Tashkiliy-boshqaruv omillari. Davlat siyosati, tibbiy xizmat normativlari, kadrlar ta'minoti, raqamli texnologiyalar. [15], [14]
5. Moliyaviy-investitsiyaviy omillar Byudjet mablag'lari, xususiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik orqali xizmat tarmog'ini rivojlantirish. [13], [3].
6. Tarixiy-madaniy omillar. Davo an'analari, tibbiy madaniyat darajasi.[9], [15]

Farg'ona iqtisodiy rayoni tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etishda aholining demografik, ijtimoiy va hududiy xususiyatlarini tizimli tahlil qilish tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining hududiy tashkil etilishi, resurslar taqsimoti va aholining sog'liqni saqlash infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini belgilab beruvchi yo'nalishlardan biridir.

Farg'ona iqtisodiy rayoni respublikada aholi nisbatan zich joylashgan hududlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida aholi soni 2010-2025-yillar oralig'ida 2800114 ming kishidan 37543.2 ming kishiga yetib, 34,1 foizga o'sdi. Shu davr mobaynida barcha viloyatlar kesimida barqaror demografik o'sish kuzatiladi, ammo hududlar bo'yicha farqlanadi.

2010-2025-yillar oralig'ida Farg'ona iqtisodiy rayoni aholi sonining barqaror o'sishi kuzatiladi. Aholisi 7.9 million nafardan 10,7 million nafargacha ko'payib, 35 foizga o'sgan, bu respublika demografik dinamikasiga mos keladi.



Hudud	2010 yil	2025 yil	O'sish (ming)	O'sish (%)
O'zbekiston Respublikasi	28001,4	37543,2	9541,8	34,1
Andijon viloyati	2549,1	3461	911,9	35,8
Namangan viloyati	2258,5	3131,7	873,2	38,7
Farg'ona viloyati	3074,6	4144,7	1070,1	34,8

1-rasm.O'zbekiston Respublikasi va Farg'ona iqtisodiy rayoni aholisi, o'sish sur'ati.[16]

Mintaqadagi barcha viloyatlardagi o'sish sur'atlari yaqin bo'lsa-da, Namangan viloyati 38,7 foiz bilan eng yuqori demografik o'sishga erishgan. Andijon viloyatida 35,8 foiz, Farg'ona viloyatida 34,8 foizlik o'sish qayd etilgan bo'lib, barqaror demografik ko'rsatgichga ega. Mintaqada mehnat yoshdagilar (16-59 yosh) mutlaq



ustunlikka ega bo'lib, mintaqa umumiy aholisining 57,9 foizini tashkil etadi. Mintaqa iqtisodiy faol aholining yuqori ulushga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

1-jadval. Farg'ona iqtisodiy rayonidagi aholining yosh tarkibi va ulushi (%) (2025-yil)[16]

Viloyat	Keksalar (60+)	Yoshlar (0–15) (%)	Mehnat yoshidagilar (16–59) (%)	Keksalar (60+) (%)
Namangan	283 607	33,0	57,9	9,1
Andijon	332 693	32,7	57,7	9,6
Farg'ona	424 984	31,6	58,1	10,3
Farg'ona iqtisodiy mintaqasi (jami)	1 041 284	32,4	57,9	9,7

Yoshlar (0-15 yosh) ulushi mintaqada o'rtacha 32,4 foiz atrofida bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatida (33,0 %), eng kam ko'rsatkich esa Farg'ona viloyatida kuzatiladi. Bu farq hududlardagi tug'ilish darajasi va shaharlashish sur'atlarining turlicha bo'lishi bilan izohlanadi.

60 yoshdan kattalar ulushi mintaqada o'rtacha 9,7 foizni tashkil etadi. Eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida (10,3%), past ko'rsatkich Namangan viloyatiga (9,1 %) to'g'ri keladi.

Farg'ona iqtisodiy rayoni aholisi asosan yosh va mehnat yoshidagi qatlamdan iborat bo'lib, bu hududdagi iqtisodiy rivojlanish, ishchi kuchi resurslari uchun demografik asos yaratadi.

Aholining jinsiy tarkibi (asosan ayollarning soni va ularning ixtisoslashgan talablari) tibbiy xizmat ko'rsatish tizimlarini hududiy joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda ayollarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar turlarini turli davrlar (ginekologik tekshiruvlar va profilaktika, reproduktiv va jinsiy salomatlik xizmatlari, homiladorlik va tug'ruq xizmatlari, menopauza va klimakteriy boshqarish, ruhiy va ijtimoiy salomatlik, umumiy profilaktik xizmatlar) ga qarab ajratadilar.

Xizmatlardan foydalanish va ularning qiymatidagi gender farqlarini o'rganish uchun bemorlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini, hududiy joylashtirishda jinsiy tarkibni (reproduktiv yoshdagi ayollar) tahlil qilish kerak, bu hududiy joylashtirishning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq tibbiy xizmatlardan foydalanadilar.

Aholining jinsiy tarkibi — ayniqsa ayollar ulushi, reproduktiv yoshdagi guruhlar va keksa ayollar salmog'i — tibbiy infratuzilmani rejalashtirishda asosiy demografik drayver hisoblanadi. Xitoy olimlari Pekin shahri misolida aholining jinsiy tarkibi (ayollarning 47% dan ortiq) tibbiy muassasalarning hududiy taqsimlanishiga ta'sirini tahlil qiladi, ayollarning ixtisoslashgan ehtiyojlarini hisobga olib, nomutanosiblikning oqibatlarini ko'rsatadilar.

Hududiy joylashtirishda jinsga xos ehtiyojlar (akusher-ginekologik yordam, perinatal xizmatlar, onkologiyada skrining, oilaviy reproduktiv maslahat, ichki zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga ko'mak va h.k.) murojaat qilish imkoniyati bilan birgalikda baholanishi zarur. Ilmiy tadqiqotlar ayollar uchun xizmat ko'rsatish muassasalarini zichligi va joylashuvi ularning xizmatdan foydalanish imkoniyatiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.[6]

Joyning uzoqligi, yo'l-transport sharoiti va xavfsizlik kabi omillar ayollarning xizmatdan foydalanishiga kuchli ta'sir qiladi. Oilaviy rejalashtirishda "masofa kamaysa—foydalanish ortadi" effekti ko'p bor isbotlangan. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar (maskan ichidagi zo'ravonlik) past hududiy foydalanish imkoniyati bilan kesishib, xavfni kuchaytiradi — bu holatda xizmatlarni aholi yashaydigan nuqtalarga yaqinlashtirish va ko'p tarmoqli logistika hal qiluvchi bo'ladi.

Sog'liqni saqlashdan foydalanishning Andersen modeliga ko'ra, jinsiy tarkib o'zgarsa, hududiy talab ham o'zgaradi — masalan, reproduktiv yoshdagi ayollar salmog'i yuqori tumanlarda akusher-ginekologik xizmatlar zarur bo'ladi. [5]

Farg'ona iqtisodiy rayonida jinsiy tarkibni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki ayollar soni 2010–2025-yillarda 41% ga ortib, mamlakatdagi ayollar umumiy sonining qariyb uchdan bir qismini tashkil etmoqda.

Farg'ona viloyati ayollarning ulushi bo'yicha 39 foiz bilan oldingi o'rinda turadi.

2-jadval. Farg'ona iqtisodiy rayoni ayollar soni va respublikadagi ulushi(%) [19]

Hududlar	2010	2015	2020	2025	%
O'zbekiston Respublikasi	13986,4	15470,3	16859,9	18638,7	100
Andijon viloyati	1272,5	1415,5	1544,2	1707,7	32
Namangan viloyati	1122,9	1260,5	1383,5	1539,8	29
Farg'ona viloyati	1534,2	1713,1	1861,7	2052,7	39



Iqtisodiy rayonda aholi zichligi yuqori bo'lgani uchun reproduktiv yoshdagi ayollar ulushi katta. Aholining zichligi iqtisodiy rayonda bir tekis emas, tog'lik va tog' oldi hududlarida ancha kam. Tog'li hududlarda qish sovuq, yomg'ir va qor miqdori ko'pligi bu sog'liqni saqlash infratuzilmasini mavsumiy uzluksiz ishlatishga qiyinchilik tug'diradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farg'ona iqtisodiy rayonida aholini tez sur'atlarda o'sishi, yoshlar va ayollar salmog'ining ortib borishi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat infratuzilmasini kengaytirish va kadrlar bilan ta'minlash zaruratini oshiradi. Demografik tahlillar shundan dalolat beradiki, tibbiy muassasalarning joylashuvi aholi zichligi va ehtiyojlariga to'liq mos kelmaydi-shahar markazlarida xizmatlar to'plangan, qishloq va tog'li hududlarda esa yetarli emas. Aholi tarkibi, yosh-gender strukturasi va sog'lom turmush tarzi ko'rsatkichlariga asoslangan holda hududiy sog'liqni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Hududda tibbiy infratuzilma va kadrlar taqsimotini belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy omillarni o'rganish, tibbiy kadrlarni hududiy ehtiyojlar asosida taqsimlash, chekka hududlarda faoliyat yuritayotgan shifokorlar uchun ijtimoiy va moliyaviy rag'batlantirish mexinzmlarini kuchaytirish kerak bo'ladi.

Tibbiy infratuzilmaga investitsiya jalb etish orqali yangi klinika, laboratoriya va diagnostika markazlarini qurish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish lozim.

Reproduktiv va ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarga (ginekologiya, mamologiya, endokrinologiya, skrining markazlari) bo'lgan talabning yildan-yilga ortishi sohada ilmiy asoslangan va zamonaviy yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud ma'lumotlar asosida barcha tibbiy muassasalarni geografik koordinatalar asosida raqamlashtirib, aholi zichligi, transport infratuzilmasi va demografik ko'rsatkichlar bilan bog'langan yagona GIS bazasini shakllantirish orqali yangi tibbiy obyektlarni optimal joylashtirish va ayollar uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirishi mumkin.

Yuqorida taklif etilgan ilmiy takliflarni joriy etish orqali Farg'ona iqtisodiy rayonida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimidagi hududiy farqlarni bartaraf etilib, aholining ayniqsa ayollar va bolalarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati ancha kengayadi. Bu sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishiga, xizmat sifatining oshishiga, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi. PF–189-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 12-dekabrda "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 559-son qarori.
3. Abdulkhalimov, A. (). The Activity of Healthcare Institutions in Ferghana Province and the Level of Their Medical Service Provision to the Village Population. International Journal of Research, 2023 y.10(10), 46–48.
4. Ahmedova, R. M. Establishment of Rural Village Centers and Changes in Their Activities in Fergana Region. IJSSIR, 2022 y.11(2), 164–168.
5. Andersen, Ronald M. Revisiting the Behavioral Model and Access to Medical Care: Does it Matter? Journal of Health and Social Behavior, 1995 y.36(1), 1–10.
6. Bertakis, K. D., Azari, R., Helms, L. J., Callahan, E. J., & Robbins, J. A.. Gender differences in the utilization of health care services. Journal of Family Practice, 2000 y. 49, 147–152.
7. Crisp, N. Global Supply of Health Professionals. New England Journal of Medicine, 2014 y.370(10), 950–958.
8. Guagliardo, M. F. (). Spatial accessibility of primary care: concepts, methods and challenges. International Journal of Health Geographics, 2004 y., 3(1), 3.
9. Nazirov, M. Sanatoriums and Medical Institutions in Fergana Region (1917–1991). InLibrary Journal of History and Political Science.
10. Penchansky, R., & Thomas, J. W. The Concept of Access: Definition and Relationship to Consumer Satisfaction. Medical Care, 1981 y., 19(2), 127–140.
11. Safarova, N. I. Specific features of medical services in the Republic of Uzbekistan. Экономика и социум, 2025 y.№6 (133)-1.
12. Yuan, X., Liu, H., Zhang, Y., & Chen, L. Spatial inequality of healthcare service accessibility: A GIS-based analysis of regional health systems. International Journal of Health Geographics, 2023 y.22(4), 1–15.
13. OECD. The Economics of Patient Safety in Primary and Ambulatory Care. Paris: 2018 y. OECD Publishing.
14. OECD. 2020 y. Realising the Potential of Primary Health Care. Paris: OECD Publishing.
15. WHO. (2019). Delivering Quality Health Services: A Global Imperative for Universal Health Coverage. Geneva: World Health Organization.
16. O'zbekiston demografik yillik to'plami (2019-2023). – Toshkent, 2024.
17. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami (2019-2023). – Toshkent, 2024. – 292 b.
18. O'zbekistonda mehnat va bandlik (2019-2023). – Toshkent, 2024. – 152 b.
19. <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/demografiya>
20. <https://gender.stat.uz/uz/asosiy-ko-rsatkichlar/sog-liqni-saqlash>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
